



2019-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **757,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **87,9 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **38,9 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **45,5 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 757,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 87,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 4,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 2,7 % ga o'sishi hisoblanadi. Ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat (87,8 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (75,2 %) pasaydi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



■ Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (o'sish sur'ati - 75,2 foiz)

■ Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 87,8 foiz)

■ Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 104,7 foiz)

■ Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 102,7 foiz)

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tuz (osh tuzidan tashqari) 3,4 martaga, chaqiq tosh 1,7 martaga oshdi. Shu bilan birga, neft 2,7 % ga pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishslash mahsulotlari | 2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|--|--|--|-------------------|
|--|--|--|-------------------|

Ko'mir, ming t.

47,5



44,9

94,5



Neft, ming t.

20,4



19,8

97,3



| 2018-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|--------------------------|
|---|--|---|--------------------------|

Osh tuzi, ming t.

1,3



2,9

2,4m


Qum, ming t.

9,9



9,2

92,4



Chaqiq tosh, ming t.

9,7




16,2


1,7m


Neft qazib olish, ming.t


Ko'mir qazib olish, ming.t



Chaqiq tosh qazib olish, ming.t




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 648,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,6 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-mart oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 25,2 % ni (17,2 %) va quyi texnologiyali - 59,9 % ni (63,5 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart



- Boshqa faoliyat turlari
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)
- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtovozsposoblilik, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,3 % (2018-yilning yanvar-mart oylarida 1,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,2 % (0,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 34,8 % (27,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % (0,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 32,2 % (46,5 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda osh tuzi 2,4 martaga, boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) - 1,3 % martaga, un - 16,3 %, yirik shoxli qoramollar uchun ozuqalar (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari) - 3,0 % ga oshdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2018-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|--------------------------|
| Paxta tolasi, ming t. | | | |
| 30,4 | | 7,1 | 23,3 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | | | |
| 3,9 | | 2,8 | 71,1 |
| Un, ming tn | | | |
| 24,3 | | 28,3 | 116,3 |
| Aroq, ming l. | | | |
| 425,1 | | 301,8 | 71,0 |
| Dizel yoqilg'isi, ming t. | | | |
| 3,2 | | 2,7 | 84,9 |



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,1 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 34,6 % ga oshgani holda, elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining (100,0 %) o'tgan yil darajasida qolganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|--|---|--------------------------|
| 0,0 | Elektroenergiya, mln.kVt/s | 0,7 | - |
| 28,6 | Issiqlik energiyasi, ming Gkal | 20,4 | 71,4 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi - 13,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 1,8 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar – 14,0 % ga oshganligi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar o'tgan yining shu davriga nisbatan (41,2 %) kamayganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2018-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|--|---|--|-------------------|
|--|---|--|-------------------|

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

3,0



3,2

107,6



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

1,4



0,5


41,2



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 294,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,2 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,9 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,3 % dan 2019-yilning yanvar-mart oylarida 54,4 % ga, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,7 % dan 45,6 % ga oshishi kuzatildi.


Chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 153,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 20,3 % ni tashkil etdi.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***

2018-yil yanvar-mart



2019-yil yanvar-mart




█ Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
█ Viloyatning boshqa korxonalari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,5 %), Jarqo'rg'on (21,6 %), Denov (17,0 %) va Sho'rchi (10,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

***2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha sanoat
ishlab chiqarishning jamiga nisbatan ulushi, %***



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 25,1 %), Sho'rchi (14,6 %) tumanlari va Termiz shahri (15,3 %) da ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 344,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 45,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Uzun (94,4 %) va Termiz (99,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Termiz shahrida (39,2 %), Sho'rchi (24,4 %), Jarqo'rg'on (27,0 %), Qumqo'rg'on (45,4 %), Angor (45,6 %) tumanlarida kuzatildi.


2019-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2246 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 494 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,0 %) Termiz shahriga, 250 tasi (11,1 %) Denov tumaniga to'gri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil 1 aprel holatiga)**



2019-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 345 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 15,4 foizi Termiz shahri, 15,9 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'lumi
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24